



# «INOLIB UZBEKISTAN 2013»

## an'anaviy Milliy axborot-kutubxona haftaligi

Insoniyat taraqqiyotining eng muhim kashfiyotlaridan biri kitob ekanligi barchaga ma'lum. Qadimdanoq kitoblar muqaddas sanalib, barcha boyliklardan ko'ra afzal hisoblangan hamda alohida qadrangan. Turli sharoitlarda ham ularni kelajak avlodga yetkazish maqsadida avaylab saqlaganlar. Aynan ana shu vazifani kutubxonalar amalga oshirgan va shu sababli ham o'tmishdagi noyob kitoblar, buyuk shaxs hamda allomalar hayoti va faoliyatiga doir manbalar, qadimiyo qo'lyozmalar, bizgacha yetib kelgan. Kitobni ham nondek aziz bilgan xalqimizning: «Kutubxona – ilmu ma'rifikat olamiga eshikdir» degan naqlida qanchalar ko'p ma'no yotganini barcha yoshdagisi kitobxon ham talqin eta olishiga shubha yo'q.

**M**a'lumki, mamlakatimizda juda kop kutubxonalar mavjud. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi mamlakatimizning bosh ma'rifikat maskani hisoblanadi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 20-mart-dagi «Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi axborot-resurs markazi faoliyatini tashkillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida»gi PQ-1729-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 4-apreldagi 98-sonli Qurorlarida belgilangan vazifalarning bajarilishini ta'minlash, mamlakatimizda milliy va jahon madaniyatini, fan va ta'limni rivojlantirish manfaatlari yo'lida axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etish, aholiga, ayniqsa, yoshlarga zamonaliviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish orqali





axborot-kutubxona xizmatini ko'sratish, ularning intellektual salohiyatini, bilimini, ma'nnaviy-axloqiy va madaniy ehtiyojlarini to'liq qondirish uchun qulay shart-sharoitlar, keng axborot-resurslari basasini yaratish sohasida bir qancha ijobjiy natijalarga erishdi. Kutubxona har jihatdan qulay va shinam. Kichkintoylardan tortib to'kattalarning ham qiziqishiga javob beradigan kitob zahirasiga ega.

Kutubxonaning asosiy vazifasi kitobni targ'ibot qilish, uni keng kitobxon ommasiga yetkazishdan iboratdir. Jumladan, bugungi kunda Milliy kutubxonanining fondi 6,9 mln. axborot-resurslarini tashkil etadi (2012-yilda 32501 dona, 2013-yilda 62042ta axborot-resurslari kelib tushgan). Ulardan 16 mingta qo'lyozma, nodir va alohida qimmatga ega bo'lgan nashrlar, (shuningdek, 1058-yilda yozilgan Movardi qo'lyozma asari), 3,8 mln.dan ortiq kitoblar, 1,5 mln.dan ortiq davriy nashrlar, 58 mingga yaqin musiqa va nota nashrlari, 525 mingdan ortiq ilmiy-texnik hujjatlar, 547 mingga yaqin mikroformalar, 75 tildagi 552 mingdan ziyyod xorijiy nashrlar, 558 mingdan ziyyod avtoreferatlar, 14 mingdan ziyyod dissertatsiyalar, 319 mingga yaqin elektron nashrlar, 230ta hujjatlari, animatsion badiiy filmlar, 200dan ortiq audiokitoblar, 148ta Brail yozuvidagi kitoblar, imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun 8ta avtomatlashtirilgan ish o'rnlari (Brail klaviaturalari + Jaws dasturi + tifloflespleyer), 220ta kompyuterlar (foydalanuvchilar uchun), 20ta netbek 10ta info-kiosk hamda internet va Wi-Fi'dan foydalanish imkoniyatlari, shuningdek, chet el elektron ma'lumotlar bazasiga kirish imkoniyatlari mavjud. O'rtacha kutubxonaga tashrif buyurish kuniga 1800–2500 kishini tashkil etadi.

Bugungi kunga kelib, foydalanuvchilar soni – 58 400 nafardan ortiqni tashkil etadi, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 1,9 barobarga oshganligini ko'rsatadi, kitob berish esa – 4 470 040ga yaqin nusxani tashkil etdi. Kutubxonaga tashrif buyurish 809 428 nafardan ortiqni tashkil etadi, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 1,4 barobarga oshganligini ko'rsatadi, kitob berish – 4,5 mln.dan ziyyod nusxani tashkil etadi, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,2 barobarga oshgan. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida, mazkur maskan direktori Asadjon Xodjayev boshchiligidagi ko'plab o'z ishiga fidokor xodimlar faoliyat yuritadi. Milliy kutubxona foydalanuvchilari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ko'p jildlik asarlarining elektron ko'rinishdagi resurslaridan, badiiy adabiyotlardan tashkil topgan audio kitoblar, «Norma» va «LEX.UZ» huquqiy ma'lumot bazalaridan keng foydalanish imkoniyatlari yaratilgan.

Mazkur kutubxona faqtgina bilim manbai kitoblarni saqlash va talabgor kitobxonlarga o'quv zallarida yaratilgan qulay sharoitlarda xizmat ko'rsatishdan tashqari, turli tadbirlar tashkil etib, yurtimiz ma'nnaviy hayotini boyitishga katta hissa qo'shib keladi. Shunday tadbirlardan biri «INFOLIB UZBEKISTAN 2013» Milliy axborot-kutubxona haftaligi 2013-yil 28-oktabrden 1-noyabr kuniga qadar ikkinchi bor o'tkazildi va kelgusida ham an'anaviy tarzda o'tkazilishi rejalashtirildi. Haftalik dasturiga ko'plab qiziqarli tadbirlar kiritilgan bo'lib, Haftalikning ochilishidayoq tamoshabin va kitobsevarlarga turli tadbirlar va chiqishlar bilan boyitilgan dasturlar taqdim etildi. Haftalikning birinchi kuni, ya'ni 28-oktabr kuni O'zbekiston





Respublikasi Qurolli kuchlar Akademiyasi orkestrining chiqishidan so'ng tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasi a'zosi H. Karimova, atoqli o'zbek shoiri, jamaat arbobi Erkin Vohidov, O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori A. Xodjayev so'zga chiqdilar.

Yangi kutubxona foydalanuvchilari (kutubxonaga a'zo bo'lgandan so'ng) uchun lotoreya o'yini ham qiziqarli o'tdi.

Dizaynerlar Laylo Rasulova va Aziza Mavlyanxodjayevalarning Xonatlas kolleksiyasining namoyishi ham haftalik tadbirlari orasida ajralib turardi.

«INFOLIB UZBEKISTAN 2013» Milliy axborot-kutubxona haftaligi doirasida «Axborot-kutubxona faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslari, amaldagi qonunchilik va uni takomillashtirishning dolzarb masalalari» mavzusida videokonferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiya ishida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining deputatlari, Vazirlar Mahkamasi, Aloqa, axborotlasihtirish va telekommunikatsya texnologiyalari davlat qo'mitasi, Intelektual mulk Agentligi va boshqa vazirlik va idoralar mas'ul xodimlari, axborot-kutubxona muassalarining mutaxassislari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdilar.

Haftalik dasturida O'zbekiston xalq artisti, o'zbek mumtoz san'atining malikasi, eng yuqori notali ovoz sohibasi Munojat Yo'lchiyeva bilan ijodiy uchrashuv ham rejalashtirilgan bo'lib, juda ham qiziqarli tarzda o'tdi.

Shuningdek, AQSH elchixonasi hamkorligida «AQSHda ta'llim» mavzusida taqdimot o'tkazildi. Haftalik dasturining mazmuni Milliy madaniyat markazlarining chiqishlari bilan yanada bo'yidi.

Haftalikning ikkinchi 29-oktabr kuni — qiziqarli uchrashuvlar kuni bo'ldi. Shu kuni O'zbekiston Milliy kutubxonasi yangi dasturlarining namoyishi, Blogerlar, moderatorlar: Ye. S. Sklyarevskiy, Z. Shadjalilova bilan ijodiy uchrashuv o'tkazildi. Fotorassom Ko'zim Qurbonovning mahorat maktabi va «Men kitobni sevaman» fototanloving yakuniy natijalari ham haftalikning ikkinchi kundi o'tkazildi.

Toshkentdagi MDU filiali bilan hamkorlikda «O'zaro aloqa almashinuvini rivojlantirish» mavzusida psixologik trening shu sohaga qiziqqanlarni jamladi. Erkin Xushvaqtov bilan ijodiy uchrashuv juda qiziqarli o'tdi. Akademik, xalq rassomi Alisher Mirzayev bilan ijodiy uchrashuv ko'plab san'at ixlosmandlarini jamladi. Estrada xonandası Alisher Fayz bilan ijodiy uchrashuv haftalikka alohida fayz qoshdi.

«Cinema service» studiyasidan moderator: D. Do'stmuhamedov tomonidan kompyuter animatsiyalari bo'yicha mahorat maktabi hamda «Sharq yulduzi» va «Звезда Востока» jurnallarining shoir, yozuvchilar bilan ijodiy uchrashuvlar ham ko'plab ixlosmandlarni jamladi.

Moderator V. Borisov tashkil etgan «Kitob o'qish san'ati» bo'yicha trening o'tkazildi.





Akademik, tarixchi, arxeolog E. V. Rtveldadze bilan «Dunyoda arxeologiya rivojlanishi tendensiyasi» deb nomlangan ijodiy uchrashuv o'tkazildi. Rassomlik, kulolchilik bo'yicha mahorat maktabi, Respublika qo'g'irchoq teatri ishtirokida ertak-minispektakl namoyishi esa kattayu kichikka birdek qiziqarli bo'ldi.

O'zbek-Yaponiya markazi bilan hamkorlikda origami bo'yicha va Shoakbarov Shoyusufdan carving bo'yicha mahorat maktabi ham shu kuni o'tkazildi. Rejissyor Rixsi Muhammadjonov, Iqbol Mirzo, Shukur Qurbon kabi yosh shoirlar bilan ijodiy uchrashuvlar, «Bolalar haqida suhbatlashamiz» mavzusida davra suhbat ham qizg'in o'tdi. Haftalikning uchinchi kuni ham shunday ajoyib tadbirlar bilan yakunlandi.

4-kun — 31-oktabrda tanlovlardan kuni bo'ldi. «Kitob o'qish san'ati» bo'yicha treningi hamda O'zbekiston Milliy kutubxonasi yangi dasturlarining namoyishi o'tkazildi. O'zbekiston shaxmat Federasiyasini bilan hamkorlikda bolalar o'rtaida shaxmat bo'yicha turnir o'tkazildi.

Shu kuni «Adabiyot bilmadoni» tanlovi o'tkazildi. Bundan tashqari, «Kitob bilan dunyoni kashf qilaman» mavzusida «Dil izhorlari», «Kutubxona haqida eng yaxshi insho», «Kutubxona haqida eng yaxshi she'r» tanlovi natijalari e'lon qilindi. O'zbekiston xalq artisti Farruh Zokirov bilan ijodiy uchrashuv juda zavqli o'tdi.

5-kun — mutaxassis kuni bo'lib, unda KBK va ISSN bo'yicha axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislari uchun seminar

o'tkazildi. O'zbekiston Milliy kutubxonasi yangi dasturlarining namoyishi bo'ldi. «Bayram» estrada guruhi bilan ijodiy uchrashuv ham alohida zavqli voqeа bo'ldi.

Haftalikning yopilishi turli tanlovlardan g'oliblarini taqdirlash marosimlari, yutuqqa planshet e'lon qilingan — «Omadli kitobxon!» lotoreyasining o'tkazilishi hamda estrada xonandalarining chiqishlari bilan o'tkazildi.

Haftalik davomida, parallel ravishda sohaga oid qiziqarli tadbirlar ham o'tkazildi. Kutubxona maydonchasida yangi adabiyotlar yarmarkasi, ko'rgazma va yangi ekspozitsiyalar, amaliy san'at ko'rgazmasi, rasmlar ko'rgazmasi, «Kitob tarixi» ko'rgazmasi, «Buyurtma-2014» aksiyasining o'tkazilishi, «Buyurtma-C2014» aksiyasining o'tkazilishi, Adabiyotlarning ochiq ko'rgazmasi «Yangi resurslar 2013», Hujjatli, badiiy filmlar hamda bolalar uchun multfilmlar namoyishi tashrif buyurganlar dilarini xushnud etdi.

Shunday qilib, Haftalikning barcha rejalashtirilgan tadbirlarida eng faol kitobxonalar, soha mutaxassislari, talaba-yoshlar, mam-lakatimiz ijtimoiy-madaniy hayotida faol, taniqli, el olqishiga sazovor bo'lgan adiblar, olimlar hamda san'atkorlar ishtirok etdilar. O'z faoliyatlar haqida fikr-mulohazalarini bayon etdilar, ish tajribalarini o'rtoqlashdilar, kelgusidagi rejalar borasida to'xtaldilar. Umuman olganda, haftalik mamlakatimizda ma'naviyat va madaniyat sohasidagi eng qiziqarli, katta bayram sifatida o'tdi.

